“SARLAVHA TANLASHDA YO‘L QO‘YILADIGAN XATOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH”

Sevara Eshonqulova Otajon qizi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti
Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistika fakulteti 3-bosqich talabasi
eshonqulovasevara56@gmail.com

Annotatsiya: Sarlavha tanlashning e’tiborga molik jihatlari, matbuotda sarlavhalarning uzun jumlalar bilan berilishi, mohiyatan matnga to‘g‘ri kelmaydigan sarlavhalar tanqidga tortilgan. Sarlavhaning fokusi, uning jonli yoki jonsiz tasavvur berishi, potensial effekt olinmasligi, sarlavhadagi so‘zlarning kombinatsion joylavushidagi nuqsonlarga urg‘u berilgan. Professional sarlavha tayyorlash mexanizmi va non-professional sarlavhalardagi kamchiliklar gazetalar misolida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Fokus, auditoriya, sarlavha, matbuot, ibora, aqliy hujum, uslub, grammatika, imlo, raqamli sarlavha, so‘roq sarlavha, bilvosita sarlavha

KIRISH (INTRODUCTION).

Insoniyatning vaqt oqimiga bo‘lgan qarashlari o‘zgarib, sutkaning 16 soatga aylanib qolganiga urg‘u berayotganlaridan ko‘rinib turibdiki, hech kimning ajratiladigan ortiqcha vaqti yo‘q. Axborot to‘foni esa, kun sayin kuchaysa kuchayadiki, sira pasaymaydi, aksincha yanada avjlanaveradi. Bu esa o‘z navbatida axborotning ko‘payishiga, axborot tarqatuvchilarining raqobati yanada jadallashishiga, maqsadli auditoriyani uzoq vaqt o‘ziga qarata bilishi, shu o‘rinda o‘zga auditoriyani ham o‘ziniki qilish uchun barcha imkoniyatlaridan mohirona va aynan o‘rnida foydalanishiga to‘g‘ri kelmoqda.

“Ikkinchi taassurot” hech nimani hal qilmaydi. Ya’ni siz tayyorlagan materialning birinchi taassuroti, siz munosib deb bilgan “ Sarlavha “ orqali namoyon bo‘ladi. O‘quvchi tomonidan talaffuz qilinish jarayonida, tilda oson o‘qiladigan so‘zlar kombinatsiyasi, tovushlar uyg‘unligi, mohiyatan o‘quvchida sirlilik uyg‘ota oladigan sarlavhalar bilan bir qatorda, ibora va frazalardan, yoki barchaga tanish mashhurlar nomidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sarlavha matnning batamom mazmunini anglatishi emas, u haqida “Bashorat” qilishi, kalit so‘zlarni o‘z ichiga olishi va qiziqish uyg‘otishi kerak.

Matn mazmuni sarlavha orqali to‘liq anglatilsa, u holda materialni o‘qishga hojat qolmayi. Yozuvchi tomonidan keltirilgan har qanday fakt va ma’lumotlar auditoriya e’tiboridan uzoqda bo‘ladi. Jurnalist material tayyorlashi qiyin bo‘lgani kabi, sarlavha

tanlash jarayoni ham murakkabdir. Matnda keltirilgan asosiy argumentdan sarlavha sifatida foydalanish ham, ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Ernest Xeminguey ta’kidlaganidek: “ Inshoning mohiyati soddalik orqali namoyon bo‘lishi kerak.” Ammo o‘ta sodda tuzilgan sarlavhalarda jonlilik yo‘qolib, natijada jurnalist o‘quvchilarini yo‘qotadi. Sarlavha qanchalik mukammal ko‘rinmasin, uni qaytadan ko‘rib chiqish, uslubiy, grammatik va imloviy xatolarsiz ekaniga ishonch hosil qilish lozim. O‘zgacha va qiziqarli sarlavha bilan omma e’tiboriga tushish, dangasa yozuvchilar uchun emas, chunki bu kuch va mahorat talab qiladi. Bugungi kunda keng ommalashgan sarlavhalardan biri bu- badiiy bo‘lmagan ikki jumla orasiga ikki nuqta (:) qo‘yib yozishdir. Misol tariqasida keltiradigan bo‘lsak : “ Elektron tijorat imperiyalari : ko‘p million dollarlik virtual biznes “. Nima? Nima uchun? Qanday ? qachon? kabi savol qolipidek sarlavhalar ham diqqatni tezda o‘ziga tortadi. Masalan: “Qanday qilib erkaklarni boshqarish mumkin?” Bunday sarlavhalarda aqliy hujum mavjud deyish o‘rinli bo‘ladi, sababi har bir ayol hayotidagi erkakning o‘zi istagandek bo‘lishi uchun, barcha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni istaydi, tabiiyki erkaklar ham bundan qanday himoyalanishni o‘ylab, ushbu nom ostidagi ma’lumotlarga ko‘z yugurtirishga majbur bo‘ladi. Sarlavhada raqamlardan foydalanish ham samarali usullardan bo‘lib, u o‘quvchida ishonch hissini uyg‘otadi. Taqqoslang : “ 1) Agar baxtli bo‘lishni istasangiz… 2) Baxtli bo‘lishning 5ta siri” Ikkinchi sarlavha maqola haqida aniqroq tushuncha berib, uning uzun maqola emasligi, faqat 5 sababdan iboratligi, bunda o‘quvchi vaqtini oqilona o‘tkazishi mumkinligini his qilishga yordam beradi. Sarlavhada tanqidiy jumladan foydalanish, materialning ham mazmuni tanqiddan iborat ekanini anglatadi. Bahs-munozarali mavzular o‘ta nozik masala bo‘lib, u keng ko‘lamli tadqiqot va isbotlarni talab qiladi.

Shunday ekan bu doiradagi sarlavhalarda bir nechta ma’no ifodalovchi ibora va jumlalardan foydalanish tavsiya etilmaydi. Sababi u ikki taraflama ziddiyat keltirib chiqarishi mumkin. Materialning mukammal holatini saqlash o‘ta muhimdir, unga jurnalistning shaxsiyati aralashmasligi kerak, chunki o‘quvchini jurnalist hayoti qiziqtirmaydi, aksincha, unga mavzuning asl mohiyati singdirilishi lozim. Sarlavhada berilgan fokus, matnda ham aynan ochib berilishi kerak, urg‘u berilgan jumla izohlanmay, boshqa jumla tafsiloti haqida bayon qilish, o‘quvchi hafsalasini so‘ndiradi. Masalan: “ Kapalaklar tark etgan shahar”. Bu yerda fokus kapalaklarga emas, balki shaharga berilmoqda. Bundan ko‘rinadiki, keltirilishi shart bo‘lgan barcha fakt va ma’lumotlar shahar haqida yoziladi.

MUHOKAMA.

“Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2023-yil 4-mart kungi 44-sonida qo‘llanilgan sarlavhalar: “Sifatli akademik ta’lim harbiy-vatanparvarlik, o‘zlikni anglash omili”,“ Qayu millatda maktab o‘lmasa, beshak xarob o‘lgay…Yoxud Hamza

Hakimzoda Niyoziy hayotining hali o‘rganilmagan sahifalari”, “Pulni boshqarish san’ati buning uchun bilim va ko‘nikma zarur”. Tahririyat umumiy nomlardan keng foydalangan. Fikrimizcha, ushbu sarlavhalar juda uzun bo‘lib, o‘quvchida zerikish hissini uyg‘otadi. Qolaversa, sarlavha mazmunini yo‘qotmagan holda so‘zlarni qisqartirish imkoniyati mavjud.(Qayu millatda maktab o‘lmasa, beshak xarob o‘lgay…Yoxud Hamza hayotining o‘rganilmagan sahifalari. Bu yerda 3ta so‘z tushirib qoldirildi.)

“Xalq so‘zi” gazetasining 2023-yil 4-mart kungi 45-sonida qo‘llanilgan sarlavhalar: “Onalar doim e’zozda”, “Xitoy kompaniyasi Buxoroda fotoelektr stansiyasi qurishni rejalashtirmoqda” Gazetada qo‘llangan sarlavhalar tipini an’anaviy deyish mumkin. Yuqorida aytib o‘tilgandek, ikkinchi sarlavhada mavzu yaqqol ochib berilgan, sirlilik yo‘qotilgan, maqolaning asl mohiyati nimada ekanligi, mavjud birgina fakt orqali sarlavhaga ko‘chirilgan.

“Mahalla” gazetasining 2023-yil 4-mart kungi 9-sonida qo‘llanilgan sarlavhalar: “Hokimni xalq tergab turishi kerak…(mi?), “ Dastur tufayli mahallamiz fayzli bo‘ldi”, “Qora uylar xorijda ham xoridorgir bo‘lyapti” Mahalla gazetasi misolida keltirilgan “Hokimni xalq tergab turishi kerak…(mi?) nomli maqola, shubhasiz ko‘pchilikning diqqat markazidan o‘rin egallaydi. Sarlavhada qo‘llanilgan ikki xil ma’no ham, ya’ni tergashi kerak … tergashi kerakmi? jumlalariga urg‘u berilyapti.Bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, qiziqish uyg‘otish koeffitsienti ham ancha yuqori. “Dastur tufayli mahallamiz fayzli bo‘ldi” nomi bilan emas, “Mahallani fayzli qilgan dastur” nomidan foydalanilganda, sarlavhadagi ortiqcha so‘zdan qutulish va uning o‘qishlilik darajasini oshirishga yordam berardi. Keyingi “Qora uylar xorijda ham xoridorgir bo‘lyapti” sarlavhasida imloviy xato mavjud “xaridorgir” so‘zi “xoridorgir” shaklida yozilgan. Shuningdek ushbu sarlavhani “Xorijda xaridorgir Qora uylar” shaklida qisqa berish imkoniyati bor edi.

“Inter Futbol” gazetasining 2023-yil 2-mart kungi 18-sonida qo‘llanilgan sarlavhalar: “Yuventus darvozasini uch marta ishg‘ol etganman” Serdar Serdarov, “Arzonlashgan “YULDUZ”lar “, “To‘pchilarning tengsiz topilmasi”, “Hammasi bolalar tabassumi uchun “ kabi sarlavhalar, professional jurnalistlar tomonidan yozilgani ko‘rinib turibdi. Qahramon tilidan olingan “Yuventus darvozasini uch marta ishg‘ol etganman” sarlavhasi o‘quvchida qiziqish uyg‘otadi. Gazetada berilgan boshqa materiallarni o‘qishga ham undaydi.Material qahramon bilan savol-javob tarzida tayyorlangan bo‘lib, o‘quvchiga qiziq bo‘lgan va ta’sirchanlikni oshiruvchi savollardan foydalanilgan. “Arzonlashgan YULDUZLAR” sarlavhasiga esa ortiqcha to‘xtalishning hojati yo‘q, Eshitiboq inson tasavvurida jonli qiyofa akslantira oladi. “To‘pchilarning tengsiz topilmasi” ushbu sarlavha alliteratsiya ko‘rinishda, badiiy-publitsistik bo‘yoqda yozilgan.

“Kuch adolatda” gazetasining 2023-yil 3-mart kungi 9-sonida qo‘llanilgan sarlavha: “ Soxta diplom yuzshuvutlikka sabab bo‘ldi “Bu nom ayni yil nomiga mos holda tanlanibgina qolmay, qonunbuzar shaxsning diplomning soxtalashtirishi, yakunida esa yuzshuvutlikka kelishi, shu 5 so‘z orqali, chiroyli yetkazilgan.

“Farg‘ona haqiqati” gazetasining 2023-yil 3-mart kungi 9-sonida qo‘llanilgan sarlavha: “Ayollar daftaridan chiqarishning “Farg‘onacha” usulimi?“. Ushbu maqola muallifi uzoq yillar davomida to‘plagan tajribasi asosida shunday mahoratli yozishga muvaffaq bo‘lganiga shubha yo‘q. Sarlavhada so‘roq gapdan foydalanib, kinoya mazmunini beruvchi so‘zlar kombinatsiyasidan foydalanilgan.

“Vatanparvar” gazetasining 2023-yil 3-mart kungi 9-sonida qo‘llanilgan sarlavha: “Yurt qo‘riganning- yurti buzilmas”, “Semizlik to‘qchilikmi? - Yo‘q kasallik”. Gazetada yangicha sarlavha qolipi ya’ni “dialog” so‘zlarni sarlavha sifatida berish an’anaga aylangan.Shuningdek, “Vatanparvar” gazetasi sarlavhalarda iboralardan keng foydalanadi.

“Yangi Sirdaryo” gazetasining 2023-yil 3-mart kungi 6-sonida qo‘llanilgan sarlavhalar: “Isiriq tutatgan edi…Yong‘in chiqdi “, “Yo‘lakdagi yo‘lto‘sar mashinalar”. Birinchi sarlavha o‘ta sodda so‘zlar ketma-ketligidan tuzilgan, uni “Isiriqdan yongan uy” ko‘rinishida berilsa, auditoriyaning ko‘p qismini o‘ziga tortgan bo‘lar edi.

XULOSA.

Sarlavhalar nafaqat o‘quvchi e’tiborini jalb qilishi, balki jurnalist ijodi haqida xabar tarqatishi lozim. Materialning keng ommaga tarqalishi uchun, o‘quvchi o‘zi o‘qigan nomni eslab qolsagina, atrofdagilarga yetkazishi mumkin. Shuning uchun maqolaning o‘qishlilik koeffitsientini belgilovchi sarlavha, esda qolarli so‘zlar kombinatsiyasidan tuzilishi kerak.

Mukammal sarlavha yozishni boshlagan jurnalist, murakkab jumlalardan voz kechadi. Masalan: “ Yulduz Usmonovaning “ Muhabbat” qo‘shig‘ini tinglash ta’qiqlanadi” emas balki “Ta’qiqlangan musiqa” singari qisqa va birdan diqqatni tortuvchi sarlavha. Murakkab jumlalarni sarlavha sifatida ishlatish, faqat maqolaga qarshi ishlaydi. Yodda saqlash kerak bo‘lgan yana bir jihat, jurnalist yozgan materiali orqali notiqligini isbotlashi emas, o‘quvchiga kerakli bo‘lgan ma’lumotni yetkazishi kerak.Shuningdek, boshqa mualliflarning sarlavhalarini nusxalashdan saqlanish lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. www.indeed.com
2. fledu.uz
3. www.customessaymeister.com
4. www.writersrepublic.com
5. www-wikihow-com.cdn.ampproject.org
6. www.zippia.com